BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING BADIIY-ESTETIK DIDINI TARBIYALASH MAZMUNI VA PRINSIPLARI

Jumatova Luiza Tozaboy qizi
Qori Niyoziy nomidagi TPMI 2-bosqich tayanch doktoranti
luizatozaboyqizi99@gmail.com

Annotation: This article describes the content, principles, application, methods, and essence of the process of educating the artistic and aesthetic taste of future teachers.
Keywords: Future teacher, principle, creative, analytical, integration, activity, fine art, practical training, artistic-aesthetic, culture, approaches, creativity, education, aesthetic taste.
Аннотация: В данной статье описаны содержание, принципы, применение, методы и сущность процесса воспитания художественно-эстетического вкуса у будущих учителей.
Ключевые слова: Будущий педагог, принцип, творческий, аналитический, интеграционный, деятельность, изобразительное искусство, производственная практика, художественно-эстетический, культура, подходы, творчество, образование, эстетический вкус.
Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalash jarayonining mazmuni, prinsiplari, ularning qo‘llanilish, usullari va mohiyati haqida yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Bo‘lajak o‘qituvchi, prinsip, ijodiy, analitik, integratsiya, faoliyat, tasviriy san’at, amaliy mashg‘ulot, badiiy-estetik, madaniyat, yondashuvlar, kreativlik, tarbiya, estetik did.

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalash ta’lim tizimining zamonaviy talablari asosida muhim ahamiyatga ega. Badiiy-estetik didini tarbiyalash nafaqat pedagogning san’at va estetikaga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi, balki uning pedagogik faoliyatidagi ijodiy yondashuvlar va o‘quvchilarni estetik rivojlantirishdagi ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Badiiy-estetik didini tarbiyalash bo‘lajak o‘qituvchilarning estetik sezgirligi, kreativligi va badiiy ifodalash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Badiiy-estetik didini tarbiyalash mazmuni. Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalash jarayonining mazmuni bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Badiiy ta’lim va estetik did: Badiiy-estetik didini tarbiyalash nafaqat san’atga oid bilimlarni, balki estetik sezgirlikni va badiiy didni ham o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak o‘qituvchining san’at asarlarini tushunishi, talqin qilishi va ularga

ISSN 3030-3907

munosabat bildirish qobiliyati, shuningdek, o‘quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

2. Ijodiy va analitik fikrlash: Badiiy-estetik didini tarbiyalash bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarga badiiy va estetik o‘quv faoliyatlarida muvaffaqiyatli yordam berishiga, ularning ijodiy potensialini ochib berish imkonini yaratadi.

3. Badiiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik yondashuvi: Bo‘lajak o‘qituvchi didini tarbiyalashda pedagogik metodlardan foydalanishi zarur. Bu usullar o‘quvchilarning kreativligi va estetik didini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

4. Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish: Badiiy-estetik didini tarbiyalash nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy munosabatlar, xalqlar o‘rtasidagi madaniy va estetik aloqalarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu kompetensiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘ziga xos dunyoqarashini shakllantiradi va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Tahlil. *Olimlarning badiiy-estetik didini tarbiyalashni rivojlantirishga doir fikrlari.*

Lev Vygotskiy - badiiy ta’limni nafaqat estetik rivojlanish, balki kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblagan. U, shuningdek, badiiy faoliyat orqali ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni o‘rgatish muhimligini ta’kidladi. Uning fikriga ko‘ra, badiiy-estetik kompetensiya o‘quvchilarga nafaqat estetik didni, balki ijtimoiy muhitda o‘zini tutish, o‘z-o‘zini anglash kabi qobiliyatlarni ham rivojlantirishga yordam beradi[1;11].

John Dewey badiiy ta’limni o‘rganishda estetik tajribaning markaziy o‘rni haqida gapirgan. Deweyning fikricha, badiiy ta’lim jarayonida shaxs o‘zining estetik dunyoqarashini shakllantiradi va shu orqali kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Dewey badiiy ta’limni individual va jamiyat rivojlanishining ajralmas qismi deb hisoblaydi[2;6].

Elliot Eisner badiiy ta’lim va estetik kompetensiyaning rivojlanishidagi o‘qituvchining roli haqida gapiradi. U badiiy kompetensiyani nafaqat san’atni o‘rganish, balki o‘quvchilarning umumiy estetik sezgirlik va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko‘rgan. Eisnerning fikriga ko‘ra, badiiy ta’limni o‘rganish orqali o‘quvchilar estetik va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi [3;4].

Metod. Badiiy-estetik didini tarbiyalash prinsiplari. Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalashda bir qator prinsiplarga amal qilish zarur. Ushbu prinsiplarga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatini yanada samarali tashkil eta oladi va o‘quvchilarga badiiy-estetik bilimlarni chuqurroq yetkazish imkonini yaratadi.

ISSN 3030-3907

Integratsiya prinsipi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalashda ushbu prinsip muhum ahamiyatga ega. Chunki, tasviriy san’at yo‘nalishida o‘qitiladigan badiiy san’at fanlari bir vaqtning o‘zida boshqa fanlar bilan integratsiyalashadi va bu bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik bilimlarini yanada mukammalroq va chuquroq o‘rganishga yordam beradi. Misol tariqasida rangtasvir fanini olsak, ushbu fanda bo‘lajak o‘qituvchilar tasvirlash jarayonini bir nechta fanlarning integratsiyalarini qo‘llagan holda mashg‘ulot olib borishadi. Rangtasvir mashg‘ulotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga “Inson qaddi-qomatini tarixiy obrazda tasvirlash” mavzusida kompozitsiya yaratish topshirig‘i beriladi. Ushbu topshiriqni bajarish davomida avvalo har bir bo‘lajak o‘qituvchi tarixiy obrazlarni yaratish uchun san’at tarixiga murojat qilishadi. Tarixiy obrazni tanlaganlaridan so‘ng inson obrazini, harakterini to ‘g ‘ri tasvirlash uchun plastik anatomiya fanidan egallagan bilimlari bilan kompozitsiyalarini tasvirlashadi. Kompozitsiya yaratish jarayonida perspektiva, qalamtasvir, ranglar psixologiyasi kabi fanlar bilan integratsiyalab o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar integratsiya prinsipida o‘rganayotgan kompozitsiyasi orqali bir vaqtning o‘zida badiiy-estetik did, madaniyat va tarixiy qadriyatlarni ham chuqur o‘rganish orqali, nafaqat estetik qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki turli xil madaniyatlar va ularning badiiy ifodalariga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantiradilar.

Ijodiy yondashuv prinsipi bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalashda asosiy rol o‘ynaydi. Bu prinsipning mohiyati shundan iboratki, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z shaxsiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishi, o‘qituvchi tomonidan tasviriy san’atning yangi yo‘nalishlari aks ettirishga undash va yangi ijodiy g‘oyalar bilan tasviriy faoliyatini yanada boyitish uchun maslahatlar beriladi. Ijodiy yondashuv o‘qituvchining estetik sezgirligini oshirishga yordam beradi va uning pedagogik faoliyatini yanada samarali qilishga imkon yaratadi. Ijodiy yondashuvni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarning nafaqat badiiy estetik tasavvurlarini, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu prinsipni amalga oshirish bo‘lajak o‘qituvchining faqat tasviriy faoliyatdagi bilimlarini o‘rganishi emas, balki estetik faoliyatda, san’atni o‘rganish jarayonida o‘ziga xos yondashuvlar, yangi usullarni ishlab chiqish, yangi badiiy ifodalash usullarini taklif qilishni ham anglatadi. Ijodiy yondashuv pedagogik jarayonda badiiy-estetik didini tarbiyalashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘lajak o‘qituvchi ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ikki asosiy nuqtaga e’tibor qaratishi kerak:

1. Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy ijodiy faoliyati. Ushbu faoliyat bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik yondashuviga katta ta'sir ko‘rsatadi. Agar bo‘lajak

ISSN 3030-3907

o‘qituvchi o‘zining badiiy-estetik ko‘nikmalarini rivojlantirsa, u o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim bera oladi. Bo‘lajak o‘qituvchining estetik sezgirligi va ijodiy faoliyati o‘quvchilarga yuksak estetik didni, badiiy ifodalashning turli shakllarini o‘rgatishda zarur vosita hisoblanadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z ijodiy faoliyatini amalga oshirishi orqali o‘quvchilarga o‘z shaxsiy kreativligini rivojlantirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

2. O‘quvchilarga yangi badiiy ifodalash usullarini taklif qilish. Ijodiy yondashuvni o‘rganish o‘quvchilarga yangi badiiy ifodalash usullarini kashf qilish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilarga badiiy tasvirni yaratishda turli materiallar va texnikalarni qo‘llashni o‘rgatishi kerak. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini kengaytiradi va badiiy-estetik sezgirliklarini oshiradi. Masalan, o‘quvchilarni yangi kompozitsiya shakllari, rang va fonlarni birlashtirish, musiqa va badiiy asarlarni integratsiya qilish orqali yangi ijodiy g‘oyalar yaratishga undash mumkin.

Faoliyat asosidagi yondashuv prinsipi badiiy-estetik didini tarbiyalashda juda muhim o‘rin tutadi. Bu prinsipning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchining estetik va badiiy faoliyat orqali o‘rganish jarayonini ta’minlashdir. Ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu prinsipdan amaliy fanlarda foydalanadilar. Ushbu prinsipda ustoz-shogirt an’anasi yetakchi o’rinni egallaydi. Tasviriy faoliyatlari bevosita ustoz va shogirtning faoliyati bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilarga erkin mavzuda kompozitsiya yaratish topshirig‘i berilganda har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining bilimilari va tasviriy faoliyatining qay darajada mukammal ekanligidan kelib chiqqan holda mavzu tanlaydi. Tanlangan mavzusi ustozlari tomonidan muhokama qilinadi va shogirtiga qanday texnikalardan foydalanish kerakligi, badiiy kompozitsiyani bajarishda nimalarga etibor qaratish lozimligi haqida topshiriqlar va amaliy yordamlar beriladi. Bu prinsipda ustoz ham shogirt ham individual tarzda bir-birlari bilan faoliyat yuritganligi bois bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlariningning tajribasi va badiiy faoliyatdagi ishtiroki orqali estetik va ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bu jarayon orqali bo‘lajak o‘quvchilar badiiy ifodalay olish, yangi badiiy shakllar yaratish va estetik tasavvurlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Faoliyat asosidagi yondashuv prinsipining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, ta'lim jarayonining samarasini oshirishga xizmat qiladi. Bu prinsip nafaqat badiiy ta’limni, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning umumiy shaxsiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalash jarayoni ko‘plab pedagogik yondashuvlarni, metodlarni va prinsiplarga asoslanadi. Badiiy-estetik didni tarbiyalash o‘qituvchilarning nafaqat badiiy ta’limdagi bilimlarini,

ISSN 3030-3907

balki o‘quvchilarga estetik yondashuvni o‘rgatish, ijodiy fikrlash va badiiy faoliyatga qiziqish uyg‘otish qobiliyatini ham rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun integratsiya, ijodiy yondashuv, faoliyat asosidagi yondashuv kabi prinsiplarga amal qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L. S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”. Harvard University Press. (1978).91p
2. Dewey, J. “Art as Experience” Minton, Balch Company. (1934).19p
3. Eisner, E. “The Arts and the Creation of Mind” Yale University Press. (2002). 6 p.
4. Bruner. J. “The Process of Education”. Harvard University Press. (1960).
5. Ibragimova. M. A. “Badiiy ta'lim va badiiy-estetik kompetensiya: O'qituvchilarni tayyorlash tizimida yangi yondashuvlar”Toshkent: O‘qituvchi. (2010).
6. Soloyev. A. V. “Pedagogika: Teoriya i praktika. Kultura i iskusstvo v obuchenii” Moskva: Vysshaya shkola. (2013).
7. Xasanov. R. Sh., Tursunov.D. A. “Bo‘lajak o‘qituvchilarni estetik va badiiy tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari” Toshkent: Akademnashr. (2015).
8. Makhmudova. Z. T. “Badiiy-estetik ta’limda innovatsion texnologiyalar” Toshkent: Fan. (2014).
9. Petrushina. I. V. “Estetika i pedagogika: Integratsiya teorii i praktiki”. Moskva: Izd-vo MGU. (2009).
10. Cherepanov. P. P. “Didaktika: Teoriya i praktika” Moskva: Pedagogika. (2012).
11. Shamova. T. S. “Pedagogik texnologiyalar va metodlar: badiiy-estetik kompetensiyani rivojlantirishda yangi yondashuvlar”. Toshkent: Navruz. (2016).
12. Nazarov. N. A. “San'at va ta’lim: Integratsiya va kreativ pedagogika” Toshkent: O‘qituvchi (2017)

ISSN 3030-3907